

**BOLALARNI JAMOAGA MOSLASHTIRISH VA IJTIMOY KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH
YO'LLARI**

Qilichova Marxabo Xudayqulovna

Jizzax davlat pedagogika universiteti

*Maktabgacha ta'lim nazariyasi va metodikasi kafedrasida katta o'qituvchisi
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

Yuliyaxshiyeva Mashxura Madamin qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti

"Maktabgacha ta'lim" yo'nalishi 4-bosqich talabasi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim-tarbiya jaronida bolalarni jamoa moslashtirish va ijtimoiy ko'nikmalarini shakllantirish masalalari o'rganilgan. Maqolada global kommunikatsiyalar, raqamli texnologiyalar, madaniy xilma-xillik sharoitida har bir bola nafaqat bilimli, balki ijtimoiy faol, muomala madaniyatiga ega, jamoada ishlay oladigan shaxs bo'lib voyaga etishiyetishi zarurligi asoslab berilgan. Hamda maktabgacha ta'lim-tarbiya jaronida bolalarni jamoa moslashtirish va ijtimoiy ko'nikmalarini shakllantirish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *maktabgacha ta'lim va tarbiya jarayoni, bola, tarbiyachi pedagog, jamoa, ijtimoiy ko'nikmalar, pedagogik tamoyillar, zamonaviy ta'lim metodlari, o'yin faoliyati, ijtimoiy moslashuv bosqichlari.*

Kirish. "Odamga bolalikdan singdirilgan odatlar yosh daraxt tanasiga o'yib yozilgan harflarga o'xshaydiki, ular daraxt bilan birga o'sadi va uning ajralmas qismiga aylanib qoladi" – degan edi G'arb olimi Viktor Gyugo. Darhaqiqat, "bolalikda olingan bilim toshga o'yilgan naqsh" - deb, bejizga aytilmagan. Bu bilim bilishdan, ya'ni yashab turgan muhitni anglashdan boshlanadi. Bu anglash birinchi navbatda oila bag'rida shakllansa, keyingi bosqichda maktabgacha ta'lim va tarbiya tashkilotlarida tarbiyachilar ko'magida davom ettiriladi. Bu haqida prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev shunday degan edi: - "Farzandlarimiz tarbiyasida eng asosiy bo'g'in hisoblangan maktabgacha ta'lim tizimining jamiyatimiz hayotidagi o'rni va ahamiyatini hech narsa bilan o'lchab bo'lmaydi". [1, B.226.] Chunki bola oila muhitidan keyin ta'lim va tarbiya oladigan maskani maktabgacha ta'lim muassasasida shakllanadi va tarbiyalanadi. Bu maskanda tarbiyachi pedagoglardan bolalarni jamoaga moslashtirishi va ularda ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirish metodikasiga ega bo'lishi talab etiladi.

Bugungi zamonaviy ta'limda bolalarning ijtimoiy moslashuviga oid masalalar dolzarb bo'lib qolmoqda. Global kommunikatsiyalar, raqamli texnologiyalar, madaniy xilma-xillik sharoitida har bir bola nafaqat bilimli, balki ijtimoiy faol, muomala madaniyatiga ega, jamoada ishlay oladigan shaxs bo'lib voyaga etishi kerak. Bu jarayonga maktabgacha yoshdan e'tiborni kuchaytirish va bolalarda ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirish zarur.

Chunki bu ko'nikmalar bolaning butun umrlik shaxsiy rivojlanish yo'nalishini belgilashga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan bolalarni jamoaga moslashtirish va ularda ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirish tarbiyachilar uchun muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ushbu jarayon bolalar uchun to'g'ri ijtimoiy va psixologik muhit yaratish, ularni bir-birini hurmat qilishga, yordam berishga va o'zaro muloqotda bo'lishga o'rgatishdan iboratdir.

Asosiy qism. Bolada ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirish jarayoni tarbiyachilardan ma'lum pedagogik tamoyillarga rioya etishni talab etadi.

➤ **Insonparvarlik tamoyili:** Maktabgacha ta'limda insonparvarlik

tamoyili bolaga muhabbat, hurmat va g'amxo'rlik bilan yondashishni anglatadi. Bu tamoyilga asoslanib, bolalar o'zlarini jamiyatda hurmat qilinadigan, teng va qadrlangan shaxslar sifatida sezadilar. Pedagoglar bolalar bilan yaxshi munosabatlar o'rnatib, ularni individual va ijtimoiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirishadi.

➤ **Ijtimoiy moslashuv tamoyili:** Bolalarni jamoada o'zini erkin va

ishonch bilan his qilishiga yordam beradigan tamoyildir. Ijtimoiy moslashuvning asosiy maqsadi bolalarga jamiyatda muvaffaqiyatli yashash va boshqalar bilan ijtimoiy aloqalar o'rnatish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni shakllantirishdir. Pedagoglar bolalarga o'zaro muloqot qilishni, guruhlarda ishlashni, fikr bildirishni, boshqalar fikrini eshitishni va baham ko'rishni o'rgatishadi.

➤ **Qadriyatlar va madaniyatga hurmat tamoyili:** Bu tamoyil

bolalarda o'z madaniyati va boshqalar madaniyatiga hurmatni shakllantirishga yo'naltirilgan. Bolalar bir-birining farqliliklarini qabul qilishni o'rganadilar va bu holat ularni ijtimoiy muhitga moslashishiga yordam beradi. Pedagoglar bolalarda o'zaro hurmat, tenglik va hamkorlikni rivojlantiradi.

➤ **Ota-ona va jamiyat bilan hamkorlik tamoyili:** Maktabgacha

ta'lim tashkilotlari ota-onalar va jamiyat bilan yaqin hamkorlikda ishlashni talab etadi. Bu tamoyil bolalar ta'limi va tarbiyasida ota-onalar va jamiyatning o'rni va roli katta ekanligini tan olishga asoslanadi. Ota-onalar bilan muntazam aloqada bo'lish, ularning fikrlarini hisobga olish va tarbiyaviy yondoshuvlarni birgalikda ishlab chiqish muhimdir.

➤ **Individual yondashuv tamoyili:** Har bir bola o'ziga xos va o'zgacha,

shuning uchun ularga individual yondashish muhimdir. Ijtimoiy pedagogika tamoyillariga asoslanib, pedagoglar bolaning jismoniy, intellektual va emotsional holatini hisobga olib, unga mos o'quv va tarbiya jarayonini tashkil etadilar. Bu tamoyil bolalarning o'ziga xos ehtiyojlari va qobiliyatlarini inobatga olishga imkon beradi.

➤ **Ta'lim jarayonida o'yin va faoliyat tamoyili:** O'yin va faoliyat

maktabgacha ta'limning ajralmas qismidir. Ijtimoiy pedagogika tamoyillariga ko'ra, o'yin bolalar uchun eng samarali o'rganish va ijtimoiy aloqalar o'rnatish vositasidir. Pedagoglar bolalarni o'yinda ijtimoiy vazifalarni bajarishga undashadi, bu orqali ular o'zaro hamkorlik va guruhda ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradilar.

➤ Inson huquqlari va tenglik tamoyili: **Maktabgacha ta'limda inson**

huquqlari va tenglikni ta'minlash muhim o'rin tutadi. Bolalar teng imkoniyatlarga ega bo'lishi kerak va ular o'z huquqlari haqida bilib o'rganishlari lozim. Pedagoglar bu tamoyilga asoslanib, har bir bolaning huquqlarini himoya qilish va ta'limda tenglikni ta'minlashga harakat qilishadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ijtimoiy pedagogika tamoyillari bolalar uchun nafaqat ta'lim berish, balki ularni ijtimoiy hayotga tayyorlash, ularning jamiyatdagi o'rnini tushunish va muomala qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan.

Bu tamoyillar pedagoglar tomonidan bolalar bilan ishlashda samarali usullar va metodlarni tanlashga yordam beradi.

Ijtimoiylashuv - bolaning ijtimoiy muhitda shakllanishi va faol ishtirok etishiga xizmat qiluvchi uzluksiz jarayondir. Bu jarayon:

- birlamchi bosqichda – oila, qarindoshlar, yaqin do'stlar orqali

sodir bo'ladi. Insonning eng sof va pokiza tuyg'ulari, ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlari birinchi galda oila bag'rida shakllanadi. Bolaning xarakterini, tabiati va dunyoqarashini belgilaydigan ma'naviy mezon va qarashlar – yaxshilik va ezgulik, olijanoblik va mehroqibat, or-nomus va andisha kabi muqaddas tushunchalarning poydevori oila sharoitida qaror topishi tabiiydir. [2, B.33.]

- ikkinchi bosqichda – bog'cha, maktab, mahalla, jamiyat orqali

sodir bo'ladi. Maktabgacha ta'lim bosqichida bola sezgi, qiziqish, o'yin orqali o'rganadi. Shu sababli o'yinli faoliyat asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Bu bosqichda bolaga rahbarlik qiluvchi kattalarning mehribon, do'stona munosabati asosiy rol o'ynaydi. Maktab davrida esa bola mustaqil fikrlash, o'z fikrini asoslash, jamoada o'zini tutish madaniyatini o'zlashtiradi. Bu bosqichda mustaqillik, javobgarlik va o'z-o'zini boshqarish elementlari muhim ahamiyatga ega. Shuningdek bolani o'rab turgan jamiyat ham sog'lom bo'lishi zarur. Chunki bola nafaqat maktabdagi tarbiya, balki atrofdagilardan ham ko'p narsalarni o'rganishi mumkin. Agar bolada ota-ona va ta'lim muassasalari bergan ta'lim-tarbiya asosida ma'lumotlarni filtr qilish ko'nikmasi shakllangan bo'lsa, atrofdagilarning ta'sir kuchi bo'lmaydi. Agar aksincha bo'lsa, bunda har qanday bola yoki inson ko'makka muhtoj bo'ladi. Shuning uchun ham bolalikdanoq ijtimoiy ko'nikmalarni egallashga va jamoaga moslashishga o'rgatish bilan birga ularda olingan ma'lumotlarni filtr qilsihga ham o'rgatish darkor.

Bolalarni jamoaga moslashtirish va ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirish tarbiyachilar tomonidan amalga oshiriladigan muhim vazifalardir. Bu jarayon bolaning ijtimoiy rivojlanishiga, jamoada o'z o'rnini topishiga va boshqalar bilan samarali aloqada bo'lishiga yordam beradi. Tarbiyachilar bolalar bilan doimiy muloqotda bo'lib, ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishda turli xil o'yinlar, mashg'ulotlar va munosabatlar orqali bolalarga ijobiy ta'sir ko'rsatishlari mumkin. Pedagoglar innovatsion pedagogik metodlarni o'z ish jarayonlariga tatbiq etish orqali bolalarning ijtimoiy ko'nikmalarini samarali rivojlantirishlari mumkin. Buning uchun ularning muloqot, hamkorlik qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan faoliyatlarni tashkil etish zarur.

Jamoaga moslashtirish jarayonining asosiy maqsadi bolalarga jamoa tarkibida ishlash, bir-biriga yordam berish, o'z fikrlarini erkin ifoda etish va birgalikda faoliyat yuritish kabi ko'nikmalarni o'rgatishdir.

Bu jarayonning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Bolalarga jamoada ishlash qoidalarini o'rgatish.
2. Ularda bir biriga hurmat va e'tibor ko'rsatish ko'nikmalarini rivojlantirish.
3. Bolalarni o'z fikrlarini aniq va madaniyatli tarzda ifoda etishga o'rgatish.
4. Jamoada boshqaruv va hamkorlikni mustahkamlash.

Bolani jamoaga moslashtirish jarayonining bosqichlari quyidagilardan iborat:

❖ **Tanishuv bosqichi.** Bu bosqichda bolalar bir-biri bilan tanishib, o'zaro aloqalar o'rnatishni boshlaydilar. Tarbiyachilar bolalarga bir-birini tanishtirishga yordam beradi, o'yinlar va guruh mashg'ulotlari orqali ular o'rtasida do'stona muhit yaratadi. Shuningdek, bolalar jamoada o'z o'rnini topish uchun qanday xulq-atvorni namoyish etishlari kerakligini tushunib etadilar.

❖ **Ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish bosqichi.** Bolalar o'zaro aloqalar o'rnatish va jamoa faoliyatida o'zini tutish qoidalarini o'rganadilar. Tarbiyachilar o'yinlar, turli vazifalar orqali bolalarga o'z fikrini ifoda etish, boshqalarni tinglash va ularga yordam berishni o'rgatadilar. Bu bosqichda bolalar o'zaro kelishuv, birgalikda muammolarni hal etish va jamoa faoliyatida ishtirok etishga ko'nikadilar.

❖ **Jamoa faoliyatiga to'liq integratsiya bosqichi.** Bolalar jamoa faoliyatida to'liq ishtirok etishni boshlaydilar. Tarbiyachilar har bir bolaning qobiliyatlari va ehtiyojlarini inobatga olgan holda, ularni faoliyatga jalb qilishadi. Bu bosqichda bolalar o'zaro hamkorlikda ish olib borishni, o'z xatti-harakatlari uchun javobgarlikni tushunishni o'rganadilar. Tarbiyachilar jamoa ichidagi ijtimoiy rollarni belgilashga yordam beradilar.

❖ **Jamoa yutuqlarini baholash bosqichi.** Jamoaning umumiy yutuqlari va bolalarning o'zaro aloqalari baholanadi. Tarbiyachilar bolalarga o'z faoliyatlarini tahlil qilishni, qayerda xato qilishganini va qanday yaxshilanishi mumkinligini ko'rsatadilar. Bu bosqichda bolalar o'zlarining jamoaga qo'shgan hissalarini anglab etadilar.

Bolalarni jamoaga moslashtirishda tarbiyachi pedagoglar faoliyatining ahamiyati kattadir. Chunki ular bolalarga ham ta'limiy ham tarbiyaviy ta'sir ko'rsatuvchi asosiy subyekt hisoblanadi. Bu borada pedagog olim D.Pisarev "Tarbiyada hamma narsa tarbiyachining kimligiga bog'liq"[3, B.27.] - degan edi. Shuning uchun ham maktabgacha ta'lim va tarbiya tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan tarbiyachi pedagoglar etuk kadr bo'lishlari talab etiladi. Shu nuqtai nazardan bolalarni jamoaga moslashtirish jarayonida tarbiyachi pedagoglar:

Emotsional rivojlanish: Jamoaga moslashtirish jarayoni bolalarning o'zini hurmat qilishini va ijtimoiy muhitda qulaylikni his qilishini ta'minlaydi. Bu jarayon ularning emotsional rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish: Tarbiyachi pedagoglar bolalarga o'zaro aloqalar o'rnatish, empatiya va hamkorlikni o'rgatish orqali ularning ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantiradilar. Bu bolalar uchun muhim hayotiy ko'nikmalarga aylanadi.

Jamoaviy ruhni shakllantirish: Bolalar jamoada ishlashda bir-biriga yordam berish va o'zaro hurmatni namoyish etish orqali jamoaviy ruhni shakllantiradilar. Tarbiyachi pedagoglar bu jarayonni boshqarish orqali bolalarni o'zaro hamkorlikka undaydilar.

Tarbiyaviy ta'sir: Jamoaga moslashtirish jarayoni tarbiyachi pedagoglarga bolalar bilan ishlashda maqsadga muvofiq strategiyalarni ishlab chiqish imkonini beradi. Bu bolalarning jamoa ichida o'z o'rnini topishlariga, mas'uliyat va rahbarlik ko'nikmalarini rivojlantirishlariga yordam beradi.

Tarbiyachilarning asosiy faoliyat usullari.

O'yin va mashg'ulotlar: Bolalarga turli jamoaviy o'yinlar va mashg'ulotlar orqali ijtimoiy ko'nikmalarni o'rgatish. O'yinlar yordamida bolalar bir-biriga yordam berishni, hamkorlikda ishlashni o'rganadilar.

Turli topshiriqlar va vazifalar: Bolalarga birgalikda bajariladigan topshiriqlar berish, ularning jamoa faoliyatida faol ishtirok etishiga ko'maklashish.

Baholash va tahlil: Tarbiyachilar bolalarning jamoaviy faoliyatini baholab, qanday yaxshilanishi kerakligini tushuntiradilar.

Ijobiy motivatsiya: Bolalarni jamoada faol ishtirok etishga va yaxshi xulq-atvorni namoyish etishga rag'batlantirish. Bolalarni jamoaga moslashtirish jarayoni bolalar uchun ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish, o'zaro hurmat va hamkorlikni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Tarbiyachilarning bu jarayondagi faoliyati, bolalarning ijtimoiy hayotga moslashuvi va jamoada o'z o'rnini topishlariga yordam beradi. Jamoaga moslashtirishning to'g'ri boshqarilishi bolalarning psixologik va ijtimoiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Ijtimoiy ko'nikmalar – bu insonlarning boshqalar bilan o'zaro munosabatlarida muvaffaqiyatli bo'lishi uchun zarur bo'lgan turli xil ko'nikmalar, masalan:

Kommunikatsiya: Boshqalar bilan samarali muloqot qilish, fikr almashish.

Empatiya: Boshqalarning his-tuyg'ularini tushunish va ularga hurmat ko'rsatish.

Kollaboratsiya: Guruhda ishlash, jamoaviy maqsadlarga erishish uchun hamkorlik qilish.

Muammolarni hal qilish: Konfliktlarni boshqarish va echimlarni topish.

O'zini o'zi boshqarish: O'z his-tuyg'ularini va xatti-harakatlarini nazorat qilish.

Ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirish yo'llari:

Model yaratish: Tarbiyachilar bolalarga o'zlarining ijtimoiy ko'nikmalarini ko'rsatib berishlari kerak. Agar tarbiyachi bolalar bilan muloqotda bo'lsa, doimo hurmatli, muloyim va sabrli bo'lsa, bu bolalarga yaxshi misol bo'ladi.

Guruh ishlarini tashkil etish: Bolalar guruhda ishlashda o'zaro yordam ko'rsatish, birgalikda muammoni hal qilishni o'rganadilar. Tarbiyachi turli xil o'yinlar va mashg'ulotlar yordamida bolalarga birgalikda ishlashning ahamiyatini tushuntirishi mumkin.

Rollarni ajratish: Bolalar o'z o'rnini va guruhdagi rolini aniq bilishlari kerak. Buning uchun turli ijtimoiy vazifalarni bajarishga undash, ularga mas'uliyat va shaxsiy o'rinlarni belgilash orqali ularni jamoaga moslashtirish mumkin.

Samarali muloqot o'rnatish: Bolalarga muloqot qilishda to'g'ri so'zlarni tanlash, boshqalarning fikrlarini hurmat qilish, gapni tugatish va o'z fikrini ochiq-oydin bildirishni o'rgatish kerak. Bu ko'nikmalar ularni boshqalar bilan o'zaro hurmatli munosabatda bo'lishga o'rgatadi.

O'yin va mashg'ulotlar orqali ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish:

Koperativ o'yinlar: Bolalar o'ynash jarayonida jamoa bo'lib ishlashni o'rganadilar. Masalan, turli guruh o'yinlari va qo'l mehnatlari orqali bolalarga hamkorlikda ishlashni, guruhni muvofiqlashtirishni o'rgatish mumkin.

Ijtimoiy ko'nikmalarni o'rgatadigan o'yinlar: O'yinlar bolalarga muammolarni hal qilish, boshqalar bilan munosabatlarni tashkil etish, tinglash va o'z fikrlarini ifodalashni o'rgatadi. "Savatga to'plangan savollar" yoki "Kim nima qiladi?" kabi o'yinlar bolalar o'rtasida muloqotni rivojlantirishga yordam beradi.

Kichik rolli o'yinlar: Bolalar kichik rolli o'yinlar orqali, masalan, "do'konda sotuvchi" yoki "oilada ota va ona" kabi o'yinlarda, ijtimoiy vazifalarni va munosabatlarni bajarishadi. Bu o'yinlar orqali bola turli ijtimoiy rollarni o'rganadi va o'zining jamoada o'rnini mustahkamlaydi.

Bolalarning ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishda quyidagi innovatsion pedagogik yondashuvlar muhim:

- Faol o'yinli metodlar: "Rollarni almashish", "Men kimman?", "Qanday yordam beraman?" kabi o'yinlar orqali empatiya, yordam, guruhiy fikrlash rivojlanadi.
- Suhbat va munozaralar: oddiy hayotiy vaziyatlar ustida birgalikda fikr yuritish, bolalarning nuqtayi nazarini shakllantirish, o'z fikrini bildirishga o'rgatadi.
- Mini-loyihalar va guruhiy topshiriqlar: jamoaviy faoliyatga jalb etish orqali bola o'z mas'uliyatini anglaydi, bir-biriga tayanishni o'rganadi.
- Dramatik mashg'ulotlar: kichik sahna ko'rinishlari orqali bolalar ijtimoiy rollarni o'zlashtiradi, hissiy ifoda imkoniyatlari kengayadi.
- IT texnologiyalarining pedagogik yondashuvlar bilan integratsiyasi: O'qitishda multimedia va onlayn platformalardan foydalanish. Bu metod tarbiyalanuvchilarning o'zaro munosabatlarini mustahkamlashda yangi imkoniyatlar yaratadi.

Innovatsion pedagogik yondashuvlar - bu yangi, ilg'or usul va metodlarni ta'lim jarayoniga tatbiq etishdir. Bu yondashuvlar ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishda samarali vositalarga aylanadi.

Shuningdek bugungi zamonaviy jamiyatda bolalarda ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirish va jamoaga moslashtirishda qator muammolar uchramoqda. Bular:

- ❖ Bolalarda ijtimoiy faollikning pastligi;
- ❖ Raqamli texnologiyalarning haddan ziyod ta'siri;
- ❖ Muloqot etishmovchiligi;
- ❖ Ota-onalarning pedagogik savodxonlik darajasi pastligi.

Bu muammolarni bartaraf etishda quyidagi chora-tadbirlar tavsiya etiladi:

1. Oilaviy tarbiya bo'yicha trening va seminarlar tashkil qilish;
2. Maktabgacha muassasalarda psixolog-pedagog bilan tizimli ishlarni yo'lga qo'yish;
3. Interaktiv mashg'ulotlar orqali bolalarning ijtimoiy faolligini oshirish;
4. Jamoaviy madaniyatga oid o'yin dasturlarini ishlab chiqish.

Xulosa. Bolalarni jamoaga moslashtirish va ularda ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirish – bu nafaqat tarbiyaviy jarayonning ajralmas qismi, balki butun jamiyatning barqarorligi, taraqqiyoti va sog'lom ijtimoiy muhitining shakllanishiga zamin yaratadigan muhim omillardandir. Chunki har bir bola – bu kelajakning fuqarosi, ertangi kunning ongli, mas'uliyatli va faol ishtirokchisidir.

Agar bola o'zini jamiyatning faol, kerakli va qadrlanadigan a'zosi sifatida his etsa, u o'zida do'stlik, hamkorlik, hamdardlik, birdamlik, bag'rikenglik va javobgarlik kabi muhim ijtimoiy fazilatlarni chuqur anglab, ularni kundalik hayotida namoyon qila boshlaydi. Bu esa nafaqat uning shaxsiy kamoloti, balki butun jamiyatning ijtimoiy salohiyati oshishiga xizmat qiladi. Shu sababli, har bir bola tarbiyasiga keng ijtimoiy yondashuv zarur bo'lib, barchamiz ushbu mas'uliyatli vazifaga maslakdosh va hamkor bo'lishimiz lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi.:T, "O'zbekiston", 2021, 226-bet.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T: "Ma'naviyat", 2008, 33-bet.
3. Quronov M. Bolam baxtli bo'lsin desangiz...: tarbiya kitobi. T., "Ma'naviyat", 2014, 27-bet.
4. Леонтьев, А.Н. *Деятельность. Сознание. Личность*. Москва: Смысл. 2005.
5. Остапенко А. А. Теория педагогической системы Н.В.Кузьминой: генезис и следствия // Человек. Сообщество. Управление. №4, 2013. – С. 37-52.
6. Ochilova, M., Qodirova, N., Ahmedova, Sh. (2019–2023). Maktabgacha ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalar. Toshkent: TDPU nashriyoti. 2020. – B. 159.
7. Ibragimov X., Quronov M. Umumiy pedegogika. Darslik. – T: "Sahhof", 2023, - B. 416.
8. Aminova G. N. Maktabgacha yoshdagi bolaning rivojlanishida syujetli rolli va sahnalashtirilgan o'yinlarning ahamiyati // SCIENTIFIC PROGRESS. Scientific Journal. Volume: 1, ISSUE: 6. 470-475-betlar.